



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Nurmanova Dilfuza Jamilovna¹

¹ SamDU Pedagogika fakulteti 1-kurs magistranti.

E-mail: dilmuzanurmanova05@gmail.com,

tel: +998936655660

SINF RAHBARINING KOMPETENTLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada sinf rahbarlarining kabsiy kompetentligini oshirish hamda ularga amaliy yordam berish maqsadida malaka oshirish kurslarining negizida sinf rahbarlari uchun maxsus kurslar tashkil qilish tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: Sinf rahbari, o'quvchi, maktab, faoliyat, kurs, malaka oshirish, ota-ona, jamiyat.

СПОСОБЫ ПОВЫШЕНИЯ КОМПЕТЕНТНОСТИ ЛИДЕРА КЛАССА

Аннотация: В данной статье рекомендуется организация специальных курсов для классных руководителей на основе курсов повышения квалификации с целью повышения компетентности классных руководителей и оказания им практической помощи.

Ключевые слова: Классный руководитель, ученик, школа, деятельность, курс, обучение, родитель, сообщество.

WAYS TO INCREASE CLASS LEADER COMPETENCE

Annotation: This article recommends the organization of special courses for class teachers on the basis of in-service training courses in order to increase the competence of class teachers and provide them with practical assistance.

Keywords: Class teacher, student, school, activity, course, training, parent, community.

Kirish. Bugungi kunda umumiy oʻrta taʼlim maktablarida taʼlim-tarbiya berish jarayonida sinf rahbarlarining oʻrni va ahamiyati katta. Maktablarimizda sinf rahbarlarining asosiy faoliyatlari tarbiyaviy ishlar bilan shugʻillanish boʻlganligi sababli uni sinfning bosh tarbiyachisi, murabbiysi deyishimiz mumkin. Sinf rahbarining faoliyatida nafaqat sinf oʻquvchilari, ota-onalar yoki ularning oʻrnini bosuvchi shaxslar bilan ham bevosita doimiy aloqada boʻlib turishlari talab qilinadi. Bugungi kunda sinf rahbarlaridan nafaqat tarbiyachi, balki murabbiy boʻlibgina qolmasdan ulardan bugungi kun bilan hamnafas boʻlishlari talab etilmoqda. Demak, zamon talabi bilan hamnafas boʻlish va sinf oʻquvchilarining qiziqishlarini oʻrganib, ularga toʻgʻri yoʻlni koʻrsata olish bu asl sinf rahbarining ish faoliyati hisoblanadi. Chunki zamon talabi va hayot taqozosi bilan bolaning ota-onasi chet ellarda oʻzi esa buvisi yoki yaqin qarindoshlarining vasiyligida boʻlgan bolalar uchun maktab, ayniqsa, sinf rahbari eng yaqin kishisiga aylanib qolmoqda. Shu bois sinf rahbarlari bolalarga faqat taʼlim-tabriya beribgina qolmasdan ularni “Katta hayotga tayyorlash” degan ulkan masʼuliyatli vazifa yelkalarida turganliklarini his qilishlari shart!

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabr PF-6108-sonli Farmoni va 2020-yil 6-noyabr PQ-4884-sonli Qarori soʻnggi yillarda umumtaʼlim maktablarimizdagi

o'qituvchilarning obro'sini oshirish, ularning ulkan va mashaqqatli mehnatlarini qadrlash davlat siyosati darajasidagi masala ekanligini isbotlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoning 6-band 3-qatori quyidagicha ifodalanadi:

- umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim muassasalari va kasb-hunar maktablari pedagoglariga 2020-yil 1-noyabrdan boshlab sinf (guruh) rahbarligi uchun qo'shimcha to'lovlar 1,5 baravarga oshiriladi.

Sinf [rahbarlarida oylik](#), (o'quv yili bo'yicha) choraklik va yillik rejalari, umumxalq bayramlarini o'tkazish bo'yicha tadbirlar rejalari va senariylari, tarbiyaviy soatlar uchun namunaviy mashg'ulot ishlanmalari, o'quvchilarni qiziqishlari asosida ijodiy birlashmalar (to'garaklar, sport seksiyalari, klublar va boshqalar)ga jalb etish daftari, tarbiyasi og'ir (muntazam dars qoldiradigan) o'quvchilar hamda iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash rejalari, ota-onalar majlisi bayonnomalari, ota-onalar bilan suhbat daftari, o'quvchilarning turar joylari, ularning ota-onalari haqida batafsil ma'lumotlar kabi ish hujjatlari yuritilishi lozim.

Sinf rahbarlarini hozirgi zamon talablariga mos ravishda ish faoliyatlarini olib borishlari va ularga motivatsiya berish maqsadida 2020-yil 6-noyabtdagi PQ-4884-sonli "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori 20-bandida quyidagilar keltirib o'tilgan:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administraturasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi va O'zbekiston teleradiokompaniyasiga Farmon hamda mazkur Qarorning maqsad va vazifalarini, malakali o'qituvchilar, namunali sinf rahbarlari, maktablar va direktorlarning ijodiy tajribalarini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish tavsiya etilsin.

Bundan kelib chiqib sinf rahbari o'z faoliyatini ommalashtirishi lozim. Bunda o'z tajribasini maqola, uslubiy ko'rsatma, uslubiy tavsiya, o'quv qo'llanma va

monografiyalar orqali ommaviy axborot vositalarida yoritib borish juda muhim. Bu esa sinf rahbarining gʻoyaviy-siyosiy ishlarni rejalashtirishda bolalarni faqat nazariy bilimlar bilan emas, balki amaliy, hayotiy tajribalar bilan qurollantirishni taqazo qiladi.

Pedagogika fanlari doktori, professor Oynisa Musurmanovanning “Pedagogik texnologiyalar – ta’lim samaradorligi omili” nomli monografitasida pedagoglarni kreativ fikrlashi bugungi kunning zaruriyati ekanligi keng yoritilgan. Yuksak pedagogik mahoratga ega boʻlgan sinf rahbarlarigina sinfda bolalar qalbiga tez yoʻl topa olishi, sinf boshqaruviga kreativ yondoshishi bilan ajralib turadi.

Ta’lim muassasalarida sinf (guruh) rahbariligi vazifasini boshlangʻich sinf oʻqituvchisi yoki boshqa fan oʻqituvchilari bajarishadi. Bugungi kunning zamon talablariga mos ravishda sinf rahbarligini bajarish uchun sinf rahbari kompetentsiyasi yetarli darajada emasligi oʻrganib chiqilgan va ularga metodik yordam berish maqsadida malaka oshirish tizimida sinf rahbarlari oʻquv kurslari tashkil qilish zarurati tugʻilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Prezidentimizning yuqoridagi Farmon va Qarorlari asosida malaka oshirish tizimida “Sinf rahbari” oʻquv kurslari tashkil etishdan oldin maktablarda soʻrovnomalar, testlar, ogʻzaki savol-javoblar oʻtkazilishi maqsadga muvofiqdir. Oʻquv kursining ishchi oʻquv rejalari oʻrganilgan tahlillar asosida tuzilishi zarur.

Sinf rahbari oʻquv kursining rejalari asosida bolalar bilan ishlash, ularning psixologik holatlarini oʻrganish, oʻquvchilarning qaysi fanlarga qiziqishlarini va kelajakda qaysi kasb yoki hunar egasi boʻlishni xohlashlarini aniqlash mexanizmlarini belgilab olish muhim. Oʻquvchilarga faqatgina nazariy bilimlar beribgina qolmasdan ularni olgan bilimlarini hayotda qanday va qay holatda qoʻllay olishlarini oʻrgatish lozim.

Tahlil va natijalar. Masalan, boshlangʻich ta’limda oʻquvchilarga Tabiat fani darslarida “Ekalogik tarbiya” yoki “Atrof-muhutni toza saqlash” haqida

ma'lumotlar berasiz. Sizni tinglagan o'quvchi gaplaringizni so'zma-so'z yodlab oladi va siz bergan ma'lumotlarini qaytadan aytib berishi mumkin. Demak, sizga savol:

Sinfingizda 25 ta o'quvchingizdan nechitasi bu ma'lumotlarni hayotida qo'llaydi yoki qayerda qo'llash kerakligini biladi?

Xo'sh sizning bu savolga javobingiz bitta uyida yoki mahallasida. Ammo siz bergan javobingizga o'zingiz ishonasizmi? Chunki siz aniq bilmaysiz. Bundan kelib chiqadiki, nafaqat sinf rahbarlari balki fan o'qituvchilari bergan bilimlarni bolalar faqat nazariyada foydalanadi, amaliyotda esa qayerda va qanday foydalanish kerakligini hatto o'ylab ham ko'rishmaydi. Shunday ekan bugundi kun o'quvchisiga nazariy bilim beribgina qolmasdan, o'quvchi olgan bilimlarini hayotda qanday qo'llash mumkinligi haqida ham amaliy ko'nikmalar berish kerak. Buning uchun muammoli vaziyatlarga o'quvchini o'zini tushub qolishi va undan qanday foydalanish haqida ham sinf rahbari amaliy ko'nikmani shakllantirishi lozim. Biz bugungi kunda maktablarimizda barcha shart-sharoitlarni yaratib qo'yganimiz va o'quvchilar faqat bilim olishlari kerak degan g'oyani ilgari surmoqdamiz. Bu g'oya, albatta, to'g'ri, ammo bola olgan bilimlaridan qayerda va qanday foydalanmoqda? Maktab, kollej, akademik litsey va hatto oliy ta'lim muassasasini a'lo baholarga bitirgan yoshlarning jamiyatda o'z o'rini topa olmayotganligi, albatta, achinarli hol. Shunday ekan biz yoshlarimizga hayotda o'zlarining qiziqishlari va ehtiyojlarini o'rgangan holda ularni erkin va mustaqil firklarini bayon qila oladigan, ko'zlagan maqsadlari sari dadil qadam qo'yishlarida sinf (guruh) rahbarlarining o'rni katta. Yuqoridagi firklarni amalda ifodalash uchun sinf rahbari tomonidan o'rganilishi lozim bo'lgan jihatlar quyidagilar:

1. O'qituvchiga biriktirilgan sinf o'quvchilarining har biri haqidagi shaxsiy ma'lumotlar bilan tanishib chiqish.
2. Individual tarzda bolalarning psixologiyasini o'rganish.
3. Ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar haqida ma'lumotlarga ega bo'lishi.

4. Fanlardan o'zlashtirish darajasi.
5. Bolani kreativ fikrlashga o'rgatish.
6. Bolaning oiladagi munosabati.
7. Bolaning maktabdan so'ng bo'sht vaqtida kimlar va nimalar bilan band bo'lishi.
8. Bolaning qiziqishlari.

Bu kurs sinf rahbariga o'zining kasbiy kompetentligini oshirishda, ish faoliyatining mazmunini yangilashda, ilmiy-metodik jihatdan rivojlanishda, jamoani tashkil etishda tajriba orttirish imkoniyatini beradi. Sinf rahbari va o'quvchini kreativ fikrlashga o'rgatish, bugungi kun ota-onalari bilan ishlash kabi bir qator masalalarni atroflicha yoritib beradi.

Bundan tashqari bugungi kun sinf rahbari intellektual, jismoniy va ma'naviy sohalarida o'quvchi shaxsini rivojlantirish uchun psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni shakllantirishda ishtirok etadi. Buning uchun u har bir bolaning shaxsiy xususiyatlarini, uning oiladagi hayot sharoitlarini bilishi zarur. Shu sababdan sinf rahbarining ish faoliyatini tashkil qilishda quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- Bolaning oilasi bilan aloqalarni o'rnatish.
- O'quvchining faoliyatini tahlil qilish.
- O'quvchilarning shaxsiy qiziqishlarini kuzatish.
- Darslarga qatnashishni nazorat qilish va deviant xulq-atvor (sotsiolog Emil Dyurkgeym (1858-1917 y.y.)ning to'rtta asaridan biri «O'z joniga qasd qilish» (1897) kitobi deviantlik muammosiga bag'ishlangan edi) shakllarining oldini olish.

Xulosa va takliflar. O'qituvchi o'quvchilar haqidagi bilimlarga asoslanib va ularning shaxsiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda, o'quvchi jamoadagi imkoniyatlarini to'liq ochib berishga yordam beradi. Bundan tashqari sinf rahbari maktab jamoasini shakllantirish, ijtimoiylashuv jarayonlari uchun javobgardir. Ko'p narsa ularning samaradorligiga bog'liq: o'quvchilar, ularning ijtimoiylashuv

jarayonidagi birinchi tajribasi, o'quv jarayonining katta ishtirokchilari bilan munosabatlar tajribasi, mashg'ulotlar samaradorligi.

Sinf rahbari o'quvchilarning maktab birlashmasi shaklida yuqori sifatli ijtimoiy-madaniy muhitni shakllantirishda muhim vazifani bajaradi. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi usullar amalga oshiriladi:

- Sinfdagi tashkiliy tadbirlarni o'tkazish.
- O'quvchilar jamoasining ichki iqlimini o'rganish va baholash.
- Sinfdan tashqari madaniy, sport va intellektual tadbirlar.
- Ota-onalar bilan hamkorlikda tadbirlar.
- Sayohatlar va turli darajadagi tadbirlarda ishtirok etish: viloyat, shahar, mintaqaviy.

Yuqoridagi ishlarning uzviy davomiyligini ta'minlash uchun esa ota-onalar bilan ishlash, tashqi muhitda (maktabda, shaharda) har bir o'quvchining va umuman jamoaning manfaatlarini himoya qilish bu sinf rahbarining funksional vazifalariga kiradi.

Sinf o'qituvchisi bolaga o'zini maktab jamiyatining a'zosi sifatida anglashda yordam berish, bolalarning jamoaviy yutuqlar uchun mas'uliyat ulushini tushunishga yordam berishga qaratilgan.

Yuqoridagi fikr va mulohazalar asosida maqolani quyidagicha xulosalash maqsadga muvofiq. Har bir sinf rahbarini kompetentligini oshirishda o'ziga va o'z ish faoliyatiga nisbatan talabchan, o'z sohasi bo'yicha har tomonlama chuqur bilimli, o'z-o'zini rivojlantiruvchi hamda o'z qobiliyati va imkoniyatlarini to'la ishga sola bilishi darajasi bilan shakllanadi. Sinf rahbarlarining kreativ fikrlashlari ta'lim-tarbiya jarayonidagi faoliyatlarini boshqarishda ijodiy, noan'anaviy yondashuvlar asosida samarali natijalar beradi erishishiladi.

Foydalanilgan adabiotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan



sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabtdagi PQ-4884-sonli "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.
3. Musurmanova O. "Pedagogik texnologiyalar-ta'lim samaradorligi omili" monografiya. Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi, 2020. - 183 b.
4. Pardayeva G. "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" – Samarqand: SamDU, 2006. - 141 b.
5. Shodiyev N., Axmedova Sh. "Pedagogika fanidan muammoli vaziyatlar va o'quv topshiriqlari" – Samarqand: SamDU, 2018. - 118 b.
6. Turg'unov S.T., Daniyarov B.X., Umaraliyeva M.A. va boshqalar "O'qituvchilarning kasbiy mahorat va kompetentligini rivojlantirish" – Toshkent: "Sani-standart" nashriyoti, 2012. - 172 b.